

# Auto Fortis

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN  
JAMIYATI

## BUYRUQ

005-A - sonli  
2023 yil «09» yanvar

### Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 18-oktyabrdagi 01-07/6859-son xatida nazarda tutilgan takliflarni amaliyotga samarali tadbiq etish, amaldagi komplayens nazoratiga oid siyosat va protseduralarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqlashtirish, jamiyatda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-tamoyillarni zamon talablariga moslashtirish va ularni maqbullashtirish hamda "UzautoComponents" MChJning 2022-yil 26-sentabrdagi 07-042-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida,

### BUYURAMAN:

#### 1. Quyidagi:

- 1.1. "AUTO FORTIS" MChJning Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, buyruqning 1- ilovasiga muvofiq;
- 1.2. "AUTO FORTIS" MChJning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti, buyruqning 2-ilovasiga muvofiq;
- 1.3. "AUTO FORTIS" MChJning Manfa'atlar to'qnashuvi bo'yicha siyosati, buyruqning 3-ilovasiga muvofiq;

«AUTO FORTIS» Mchj

1.4. "AUTO FORTIS" MChJning aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti, buyruqning 4-ilovasiga muvofiq;

1.5. "AUTO FORTIS" MChJda xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma, buyruqning 5-ilovasiga muvofiq;

1.6. "AUTO FORTIS" MChJning biznes hamkorlarini kompleks tekshirish protsedurasi yangi tahrirda, buyruqning 6- ilovasiga muvofiq;

1.7. "AUTO FORTIS" MChJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma, buyruqning 7-ilovasiga muvofiq;

1.8. "AUTO FORTIS" MChJ korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti, buyruqning 8-ilovasiga muvofiq;

1.9. "AUTO FORTIS" MChJda Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom, buyruqning 9-ilovasiga muvofiq;

1.10. "AUTO FORTIS" MChJning Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish protsedurasi, buyruqning 10-ilovasiga muvofiq;

1.11. "AUTO FORTIS" MChJning Biznes hamkorlarning odob-axloq kodeksi yangi tahrirda, buyruqning 11-ilovasiga muvofiq;

1.12. "AUTO FORTIS" MChJ Xayriya va tijorat xomiyligi bo'yicha siyosati yangi tahrirda, buyruqning 12-ilovasiga muvofiq;

1.13. "AUTO FORTIS" MChJ Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati, buyruqning 13-ilovasiga muvofiq;

1.14. "AUTO FORTIS" MChJ Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati, buyruqning 14-ilovasiga muvofiq;

1.15. "AUTO FORTIS" MChJ Sovg'alar, mehmondo'stlik, o'yin kulgu va sayohat qilish tartibi, buyruqning 15- ilovasiga muvofiq qabul qilinsin va tasdiqlansin.

2. Xodimlar bilan ishlash bo'yicha menejer (D.Rasulov)ga:

2.1. Bir oy ichida yuqorida qayd etilgan siyosat va protseduralar bilan tanishish uchun ichki kommunikatsiya amalga oshirish;

2.2. Ikki oy ichida Biznes hamkorlarini kompleks tekshirish protsedurasi bilan tanishish uchun tegishli bo'lgan "AUTO FORTIS" MChJ xodimlari uchun trening o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

3. Ijro intizomi bo'yicha mutaxassis (N.I.Mirzaxanova)ga mazkur buyruqni jamiyat mas'ul xodimlariga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish komplayens xizmati rahbari D.Mirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Bosh direktor



X.O.Nazarov